



UDK:37.1174

Gulbaxor ISHMURADOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.n
Email: gulbaxorishmuradova@gmail.com
Gulmera MIRZAYEVA,
Qarshi davlat texnika universiteti
Email: gulmeramirzayeva@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori I.Kamolov taqrizi asisida

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE TOPIC OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN FOLK CRAFTS, THE DIFFERENCES BETWEEN FOLK CRAFTS AND APPLIED ARTS

Annotation

This article discusses the rich cultural heritage of Uzbek folk crafts, their history of development, types, differences between folk crafts and applied arts, and the contributions of Uzbek scientists who have conducted scientific research in this field. It also describes the methods and tools for teaching this field in the continuing education system.

Key words: Pottery, jewelry, weaving, folk crafts, applied arts, teaching methods and tools.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ «ИСТОРИЯ НАРОДНЫХ РЕМЕСЕЛ УЗБЕКИСТАНА, РАЗЛИЧИЯ НАРОДНЫХ РЕМЕСЕЛ И ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА»

Аннотация

В статье рассматривается богатое культурное наследие узбекских народных ремёсел, история их развития, виды, различия между народными ремёслами и прикладным искусством, вклад узбекских учёных, проводивших научные исследования в этой области. Также описываются методы и средства обучения этому направлению в системе непрерывного образования.

Ключевые слова: Гончарное дело, ювелирное дело, ткачество, народные промыслы, прикладное искусство, методы и инструменты обучения.

O'ZBEK XALQ HUNARMANDCHILIGI TARIXI, XALQ HUNARMANDCHILIGI VA AMALIY SAN'AT O'RTASIDAGI FARQLAR MAVSUSINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq hunarmandchiligining madaniy boy merosga ega ekanligi, rivojlanish tarixi, turlari, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at o'rtasidagi farqlar, shu soha bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan o'zbek olimlarining fanga qo'shgan hissalari haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur sohani uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish metodlari va vositalari haqida bayon qilingan.

Kalit so'lar: Kulolchilik, zargarlik, to'quvchilik, xalq hunarmandchiligi, amaliy san'at, o'qitish metodlar, vositalari.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, "xalq hunarmandchiligini rivojlantirish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilmogda, qator qaror va qonunlar qabul qilindi. Bunda asosiy ko'zlangan maqsad biz o'zligimizni namoyon qilish, jahon xalqlari orasida o'zimizni eng chiroyli, nafis, jozibali san'atimizni ko'z-ko'z qilish, asrlar davomida rivojlanib sayqal topib kelayotgan qo'l mehnatiga yoki kichik mexanizatsiya vositasiga asoslangan faoliyat turlarimizni tanitish orqali yoki tayyorlangan buyumlarimizga nisbatan jahon xalqlariga qiziqish uyg'otish, qolaversa eksport va importni yo'lga qo'yish masalalariga e'tibor qaratib kelinmogda.

Hunarmandchilik faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 17- noyabrda PF-5242-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ushbu faoliyatni qo'llab-quvvatlash borasida qator ishlarni amalga oshirish vazifalari qo'yilgan. Ushbu qonun hujjatlarida hunarmandchilik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan"[1].

"Hunarmandchilik faoliyati – xalqning tarixan qaror topgan, maxsus bilimlar, ko'nikmalar, sir-asrorlar, uslublarga

asoslanib, qo'l mehnati, asbob-uskunalar va kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanib, an'anaviy hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda maishiy, uy-ro'zg'or, badiiy buyumlar ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish), tayyorlash bo'yicha ijodiy yoki professional faoliyat bo'lib hisoblanadi"[1] deb ta'rif berilgan.

Xalq hunarmandchiligi milliy madaniyat va ma'naviyatning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida o'quv jarayonida katta ahamiyatga ega. Xalq hunarmandchiligi yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did, ijodiy qobiliyat va mehnat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq hunarmandchiligi asoslari umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitish jarayonida va Oliy ta'lim tizimida Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini o'qitishda qo'llaniladi. Mazkur fanda xalq hunarmandchiligi tarixini o'rganish, amaliy san'at va hunarmandchilik o'rtasidagi farqlarni ilmiy-nazariy asosda tushuntirish maqsadga muvofiq. Xalq hunarmandchiligi tarixi ibtidoiy jamiyat tuzumidan boshlanadi va turli kasb-hunar turlari (kulolchilik, zargarlik, to'qimachilik va h.k.)ni vujudga kelishi, Islom davridagi rivojlanish, bezakdorlik, ma'naviy va diniy timsollar bilan farqlanadi. Hozirgi kunda o'zbek xalq

hunarmandchiligining YUNESKO merosi sifatida tan olingan turlari ham mavjud.

Texnologiya ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy tayyorlashda xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fani muhim didaktik resurs hisoblanadi. Ushbu fan nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki talabalarni milliy meros, estetik qarashlar va ijodiy tafakkur asosida tarbiyalaydi. Fan mazmuni zamon talablariga mos ravishda boyitilib, xalq hunarmandchiligining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, maktablari, shuningdek, ishlov beriladigan materiallar, zarur jihozlar, asbob-uskunalar, buyumlarni tayyorlash va pardozlash usullari kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Mazkur fan orqali talabalar dizayn tafakkuri, texnologik madaniyat, va an'anaviy san'at bilan ishlab chiqarish texnologiyalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur anglaydilar. Bu esa ularning emotsional intellektini, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. S. Bo'latovning "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati", S.Bulatov., A.Muxtorovning Ganchkorlik san'ati nomli kitoblari, Sh.Y.Azizovning ilmiy-tadqiqot ishlari "5-9- sinf texnologiya darslarida (mehnat ta'limi) xalq hunarmandchiligi bo'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish", M.X.Shomirzayevning ilmiy-tadqiqot ishlarida maktab texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlarini fanlararo takomillashtirish bo'yicha nazariy-amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. P.O.Paxratdinovning ilmiy-tadqiqot ishlarida "Texnologiya ta'limida o'quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik faoliyatini loyihalashtirish texnologiyasiga oid ilmiy-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlarning yoritib berilganligi, texnologiya ta'limida o'quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik faoliyatini loyihalashtirish jarayoni mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, uni tashkil etish yo'llari, shakl va metodlari, o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirishning ikkita usulini belgilaydi: rasmiy ravishda tartibga solinadigan, ta'lim standartlari bilan tasdiqlangan, ta'lim darajalariga qo'yiladigan talablarga yo'naltirilgan; va ustuvor vazifa shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'limni rivojlantirish. "Bilim olish jarayoniga talabalar hamda o'quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatini aks ettirish, ongli ravishda qiziqishni shakllantirish vaqti keldi. Pedagogik aks ettirish o'quv faoliyati, uning maqsadlari, mazmuni, natijalari va ularni o'qitish subyektlari tomonidan o'z harakatlarini kuzatish va tahlil qilish orqali ularni olish usullarini tushunish va anglashga e'tiborni o'z ichiga oladi. Buning obyektiv asosi barcha bosqichlarda o'qitish xususiyatlarini o'lchash, uni kerakli meyorlar bilan taqqoslash va ularga erishishning ma'lum usullari bo'lishi mumkin. Oliy ta'lim tizimida talabalarga Xalq hunarmandchiligidan bilim berishda tarixiy manbalarni tahlil qilish, hunarmandchilik buyumlari bilan tanishtirish, ish jarayonini kuzatish, tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi analiz va sintez, tahlil qilish, taqqoslash va sistemalashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Halq hunarmandchiligi tarixi juda qadimiy va boydir. U insoniyatning ilk sivilizatsiyalaridanoq paydo bo'lib, odamlarning kundalik ehtiyojlari, turmush tarzi va dunyoqarashida ifodalangan. Xalq hunarmandchiligi nafaqat turmush ehtiyoji uchun, balki xalqning madaniy va ruhiy olamini, estetik qarashlarini ifoda etuvchi bebaho meros hisoblanadi.

O'zbekistonda xalq hunarmandchiligi tarixini quidagi boshq'chilarga bo'lib o'rganamiz.

Qadimiy davrlar. O'rta Osiyo hududida hunarmandchilik miloddan avvalgi ming yilliklardayoq shakllangan. Arxeologik topilmalar Samarqand, Termiz, Marg'ilon, Xorazm va Buxoro atrofida to'qimachilik, kulolchilik va metall ishlov berish san'ati yuqori darajada bo'lganini ko'rsatadi.

Islom davri (IX–XII asrlar). Buyuk ipak yo'li orqali hunarmandchilik buyumlari butun dunyoga tarqaldi. Buxoro–zargarlik va zardo'zlik markazi, Samarqand–qog'ozsozlik va kulolchilik, Xiva – chodir tikish va kandakorlik markazi sifatida nom chiqardi.

Temuriylar davri (XIV–XV asrlar). Amir Temur va Temuriylar davrida me'morchilik, naqqoshlik, hunarmandchilik yuqori darajada rivojlandi. Shaharlarda bozorlar va maxsus ustaxonalar vujudga keldi.

XIX–XX asrlar. Har bir shahar ma'lum bir hunarmandchilik turi bilan mashhur edi: Qo'qon, Marg'ilon – ipak va atlas to'qish, Rishton – kulolchilik, Xiva – kandakorlik, Buxoro – zardo'zlik va zargarlik. Sobiq Ittifoq davrida ba'zi hunarmandchilik turlari fabrika tarzida yo'lga qo'yildi, lekin an'anaviy usullar ham saqlanib qoldi.

Hozirgi davr. Mustaqillikdan keyin milliy hunarmandchilik qayta tiklandi. "Hunarmand" yushmasi tashkil etildi. Xalqaro ko'rgazmalarda o'zbek ustalarining asarlari namoyish etilmoqda. YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan: Buxoro zardo'zlik san'ati, Marg'ilon atlas va adras to'qish an'anasi, Xorazm chodir tikish san'ati va boshqalar.

O'zbekiston xalq hunarmandchiligining quyidagi turlari mavjud:

Kulolchilikda (gilam va idishlar tayyorlash) – Rishton, Gijduvon, Xiva markazlari bilan mashhur. Zardo'zlikning markazi (oltin va kumush ip bilan bezash) – asosan Buxoro viloyatida, gilamdo'zlik asosan Qashqadaryo, Xorazm va Qoraqalpog'istonda rivojlangan. Ipakchilik va to'qimachilik yo'nalishi bo'yicha – Marg'ilon atlas va adras jahonga mashhur hisoblanadi. Zargarlik ishlari bilan – Samarqand, Buxoro, Toshkent ustalari mashhur. Kandakorlik (metallni naqshlash) – Xiva, Buxoro va Toshkent markazlari alohida o'rin tutadi. Oynagarlik va toshtaroshlik – Samarqand va Shahrisabzda keng tarqalgan. Chodir tikish va chigirmachilik – asosan Xorazmda saqlanib qolgan. Misgarlik – idish-tovoq, shamdon va bezak buyumlari yasash san'ati Shaxrisabz, Buxoro, Xiva va Qo'qonda saqlanib qolgan Xalq hunarmandchilikning boshqa yana ko'plab turlari ham mavjud. Ko'rib turganimizdek, xalq hunarmandchiligi – bu nafaqat odamlarning kundalik ehtiyoji, balki ularning ma'naviy dunyosi va milliy madaniyatini ifodalovchi bebaho merosdir.

Oliy ta'lim tizimida talabalarga Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at o'rtasidagi farqlarni tushuntirish va ularni amaliy ahamiyatini o'rgatish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xalq hunarmandchiligi. Xalq hunarmandchiligi – bu avlodlar avlodga o'tib kelayotgan, xalqning hayot tarzi, urf-odatlar va an'analarini ifoda etuvchi amaliy faoliyat turidir. U insonlarning kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, milliy madaniyat va ma'naviyatning muhim tarkibiy qismi sifatida ham xizmat qiladi. Xalq hunarmandchiligi: hayotiy ehtiyojga yo'naltirilgan (turmush uchun zarur buyumlar), ammo badiiylik bilan uyg'unlashgan bo'ladi.

Asosiy jihatlar:

Asosan uy-ro'zg'or buyumlari va turmushda qo'llaniladigan narsalarni yaratishga yo'naltirilgan.

An'anaviy usullarda, qo'l mehnati asosida bajariladi.

Unga kulolchilik, chilangarlik, to'qimachilik, kashtachilik, zargarlik, o'ymakorlik, suyak o'ymakorligi kabi turlar kiradi.

Mahalliy tabiiy xom ashyodan keng foydalaniladi.

Amaliy san'at. Amaliy san'at – bu badiiy qiymatga ega bo'lgan, turmushda ham, estetik jihatdan ham qo'llaniladigan asarlar yaratish yo'nalishi hisoblanadi. U nafaqat foydali, balki nafosatli jihatlariga ham e'tibor qaratadi. Amaliy san'at: estetik va badiiy qiymatga ega asarlar yaratish, ko'proq bezak va san'at yo'nalishidir.

Asosiy jihatlar:

Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at bir-biridan asosiy farqlanishi

1-jadval

Jihatlar	Xalq hunarmandchiligi	Amaliy san'at
Asosiy maqsad	Turmush ehtiyojlarini qondirish hunarmandchilik – turmush va foydalanish	Turmush va estetik ehtiyojni uyg'unlashtirish amaliy san'at – estetik qimmat
Texnika	An'anaviy qo'l mehnati	Badiiy-estetik yondashuv bilan
Asarning qiymati	Foydaliligi	Foydaliligi + badiiy qiymati
Namunalar	Chilongarlik, kulolchilik, to'qimachilik	Kashtachilik, gilamdo'zlik, miniatyura
Mahsulot	hunarmandchilik mahsuloti – amaliy.	amaliy san'at asarlari ko'proq ko'rgazmaviy
Mehnat jarayoni:	hunarmandchilikda an'anaviy texnologiyalar asosiy o'rinda	amaliy san'at ijodkorlikka tayanadi

Talabalarda xalq hunarmandchiligini o'rganishda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari zamonaviy ta'lim shakllari, texnik vositalar, metodlar, o'zlashtirishni baholash, baholash darajalari va mezonlarini ishlab chiqish, kafolatlangan natijaga erishish bilan bog'liq o'qitish jarayonini samarali tashkil qilishni talab etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida xalq hunarmandchiligiga oid o'quv mashg'ulotlarida ilmiy izlanishlar natijalari va texnologiyalaridan faol foydalanish, talabalarining ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim jarayonlarida ijodiy ishlari samaradorligini oshirish va o'quv jarayoniga yuqori intellektual texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim mazmunini chuqur o'zlashtirilishga erishish, talabalarining emotsional intellektlarini rivojlantirish, loyihalash ko'nikmalarini, yangi milliy konstruksiyalar, zamonaviy dizayn yaratish kompetensiyalarini takomillashtirishdan iborat. Xalq hunarmandchiligiga oid mashg'ulotlarning qanchalik samarali tashkil etilishi: o'quv jarayonining metodologiyasi va texnologiyasi, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq.

Mazkur mavzuni o'qitishda quyidagi o'qitish usullari va vositalaridan foydalaniladi: Ma'lumot berish (leksiya, muloqot): tarixiy manbalar, olimlar ishlariga tayanish; ko'rgazmali metodlar: hunarmandchilik buyumlari, amaliy

Turmushda ishlatiladigan buyumlarni nafasot bilan uyg'unlashtiradi.

Ornament, naqsh, rang uyg'unligi va uslubiy jihatlariga katta e'tibor qaratilgan.

Unga miniatyura, gilamdo'zlik, hunarmandchilikning badiiy turlari, milliy kiyim-bosh dizayni kabi sohalar kiradi.

Asarlar nafaqat foyda uchun, balki badiiy qiymati bilan ham ahamiyatlidir.

farqlanishi

san'at asarlari namunalarini ko'rsatish; interaktiv metodlar: "Klaster", "Blits-savol", "Fikrlar xaritasi", "Venn diagrammasi" orqali hunarmandchilik turlarini farqlarni aniqlash. Amaliyot: ustalar ish joyiga ekskursiya uyushtirish, master-klasslar o'tkazish lozim bo'ladi. Xalq hunarmandchiligi mavzularini o'qitishda quyidagi vositalaridan foydalaniladi: rasmlar, videolavhalar, materiallar, hunarmandchilik buyumlari. Elektron resurslar va onlayn ko'rgazmalar. YUNESKO va mahalliy meros to'g'risidagi ma'lumotlar berish orgali ta'lim jarayoni o'tkaziladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida talabalar xalq hunarmandchiligi tarixi va amaliy san'at haqida chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi. Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at o'rtasidagi farqlarni yaxshi tushunib oladilar, anglaydilar va tahlil qila oladilar. Milliy madaniy merosimizni qadrlash va asrab-avaylash hissi kuchayadi. O'qitish jarayonida nazariy va amaliy metodlardan foydalanish talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtiradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish (multimedia, virtual ko'rgazmalar) ehtiyoji kuchaytiriladi, xalq ustalari bilan hamkorlik qilish, jonli master-klasslar tashkil etish esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandlarni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab- quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-son farmoni, <https://www.lex.uz/uz/docs/-3416134>
2. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати Т.: Меҳнат. 1991.-279 б
3. Bulatov S., Muxtorov A., Ganchkorlik san'ati. -T.: Musiq, 2006.-131 b
4. Bulatov S., Hasanov S., Karimov, I., Shomirzayev M.X., Paxratdinova P.O., Qosimov Q. va boshq. Xalq hunarmandchiligi va ta'lim. T.: Barkamol avlod. 2015-198b
5. Ishmuradova G.I., O'rokov K.X., Mirzayeva G.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Qarshi. Fan va ta'lim 2021.- 374 b.
6. Ishmuradova G.I., Mirzayeva G.M., Mirzayev E.M. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. Qarshi. Nasaf NMU 2021.- 343 b.